

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

BANK-MOLIYA XIZMATLARI FAKULTETI

“MOLIYA VA SUG'URTA XIZMATLARI” KAFEDRASI

**MOLIYA ta'lim yo'nalishi MK-313 guruh talabasi AMIROV EL'SHODning
“DAVLAT BUDJETI” fanidan yozgan**

REFERAT

**Mavzu: SOLIQ KODEKSI – BUDJET DAROMADLARINI
SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSI SIFATIDA.**

Tekshirdi: Sh.M. Latipova

SAMARQAND - 2016

MUNDARIJA:

1. Soliq kodeksi – budjet daromadlarini shakllantirishning huquqiy asosi sifatida.....	3
2. Tarqatma materiallar va chizmalar.....	5
3. Test savollari.....	8
4. Krossword.....	10
5. Mavzuga oid me'yoriy hujjatlar ro'yxati.....	12
6. Mavzuga doir adabiyotlar ro'yxati.....	13

SOLIQ KODEKSI – BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSI SIFATIDA

Yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mablag'lar bir qismining davlat ixtiyoriga majburiy vs qaytarilmaydigan tarzda o'tkazuvchi to'lovlarga soliqlar deyiladi. Ishlab chiqarish munosabatlarining alohida sohasi (tarkibiy qismi) sifatida soliqlar qat'iy ichki xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlari va namoyon bo'lishning farqlanuvchi shakllariga ega bo'lgan o'ziga xos tarzda iqtisodiy kategoriyadir.

Budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlar hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Soliqlar hisobidan davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish uchun moliyaviy asos yaratiladi. Soliqlarsiz davlat faoliyat ko'rsata olmaydi. Chunki ular bozor munosabatlari va xususiy mulkchilik hukmronligi sharoitida daromadlarni budjetga jalb qilishning asosiy metodi hisoblanadi.

Soliqlar YaIM va uning tarkibiy qismi bo'lgan milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etib, yagona takror ishlab chiqarish jarayonining bir qismi, ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Soliqlar milliy daromad qiymati bir qismining umumdavlat ehtiyojlari foydasiga olinishi jarayonida namoyon bo'ladigan va real mavjud bo'lgan pul munosabatlarini ifodalaydi. Bu soliq munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida doimiy ravishda o'zgarishda bo'ladi.

Mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari, tadbirkorlar va ishbilarmonlarga yaratilayotgan qulaylik va imtiyozlar hamda soliq qonunchiligini takomillashtirish borasidagi islohotlar yangi Soliq kodeksini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi va u 2008 yilning 1 yanvaridan amalga kiritildi.

Yangi Soliq kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Kodeks 64 bob, 392 moddadan iborat bo'lib, u soliq masalalarini tartibga soluvchi barcha me'yor va qoidalarni mujassamlashtirgan va to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjatga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining (25.12.2007 Raqam: O'RQ-136) 1-moddasiga asosan Soliq Kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.



O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimi (3-bob) byudjet tizimi daromadlarini shakllantirishni ta'minlaydi. Soliq kodeksida soliqlar va majburiy yig'implarning turlari bo'yicha tasnifi (umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar) nazarda tutilgan (23-modda);


soliq to'lovchilar, shuningdek, soliqlar yoki boshqa majburiy yig'implarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar (24-modda), chunonchi: soliq solish ob'ekti (25-modda), soliq solinadigan baza (26-modda), stavka (27-modda), hisoblab chiqarish tartibi (28-modda), soliq davri (29-modda), soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar (30-modda) belgilangan.

Ushbu Kodeksning 5-moddasiga Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari quyidagi prinsiplardan tashkil topadi: Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalari ushbu Kodeksda belgilangan prinsiplarga zid bo'lishi mumkin emas.

Yuqorida yangi Soliq kodeksi soliq masalalarini tartibga soluvchi barcha me'yor va qoidalarni mujassamlashtirgan, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjatga aylandi, deya ta'kidladik. Yangi Soliq kodeksi, uning avvalgisidan farqli jihatlari haqida shu kabi yana ko'plab e'tiroflarni bildirish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, qonunchilik taraqqiyoti xalq va jamiyat manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Yangi kodeks ham bu borada ezgu maqsadlar ro'yobiga xizmat qilishiga shubha yo'q.



TARQATMA MATERIALLAR VA CHIZMALAR:





ДАВЛАТ БЮДЖЕТИНИНГ ДАРОМАДЛАРИ

1. Тўғри солиқлар. а) Юридик шахслар даромадига солиқ, б) савдо ва умумий овқатланиш корхоналарининг ялпи даромадига солиқ, в) микро фирма ва кичик корхоналарга ягона солиқ, г) жисмоний шахслар даромадига солиқ, д) тадбиркорлик фаолияти билан шуг. жисмоний шахслар даромадига солиқ.
2. Эгри солиқлар. ҚҚС, акциз, божхона бождари, жисмоний шахслардан ягона бож тўлови, транспорт воситаларига бензин, дизел ёқилғиси ва газ истеъмоли учун жисмоний шахслардан солиқ.
3. Ресурс тўловлари ва мол-мулк солиғи. Мол-мулк солиғи, ер солиғи, ер ости бойликларидан фойдаланганлиги учун солиқ, сув тўлови, экология солиғи.
4. Бошқа даромадлар.
5. Давлат мақсадли фондларининг даромадлари.



TEST SAVOLLARI:

1. Amaldagi Soliq kodeksi qachon qabul qilingan?
 - a) 25-dekabr 1996 yil;
 - b) 25-dekabr 2007 yil;
 - c) 1-yanvar 2005 yil;
 - d) 1-yanvar 2008 yil.
2. Amaldagi Soliq kodeksi nechta bo'lim, bob va moddadan iborat?
 - a) XVIII bo'lim, 32 bob, 135 modda;
 - b) XIX bo'lim, 32 bob, 135 modda;
 - c) XX bo'lim, 64 bob, 392 modda;
 - d) XXI bo'lim, 64 bob, 392 modda.
3. O'zbekiston Respublikasining dastlabki Soliq kodeksi qachon qabul qilingan?
 - a) 1998 yil;
 - b) 2000 yil;
 - c) 2002 yil;
 - d) 2004 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining dastlabki Soliq kodeksi necha moddadan iborat bo'lgan?
 - a) 133 moddadan;
 - b) 135 moddadan;
 - c) 137 moddadan;
 - d) 139 moddadan.
5. Soliq kodeksiga asosan soliq solishning qanday prinsiplari mavjud?
 - a) majburiylik, adolatlilik, oshkoralik;
 - b) yagonalik, majburiylik, sirlilik;
 - c) aniqlilik, yagonalik, soliq to'lovchi haqligi prezumpsiyasi;
 - d) a va c javoblar to'g'ri.
6. Davlat budjeti daromadlarining katta ulushini qaysi soliq turi tashkil etadi?
 - a) to'g'ri soliqlar;
 - b) egri soliqlar;
 - c) to'g'ri va egri soliqlar;
 - d) resurs to'lovlari.
7. qaysi bir soliq turi umumdavlat byudjetiga tushadi ?
 - a) qo'shilgan qiymat solig'i.
 - b) reklama solig'i.
 - c) transport vositalari egalaridan undiriladigan soliqlar.
 - d) hamma javoblar to'g'ri.
8. Qaysi bir solik turi umumdavlat byudjetiga tushadi?
 - a) kurort yig'imi
 - b) savdo qilish xuquqi uchun yig'im.
 - c) aksiz solig'i
 - d) to'g'ri javob yo'q.

9. Qaysi soliq xillari umumdavlat byudjetiga tushadi?
 - a) qo'shilgan qiymat solig'i
 - b) aksiz solig'i
 - c) foyda (daromad) solig'i
 - d) hamma javoblar to'g'ri
10. Davlat boji qaysi byudjetga tushiriladi?
 - a) umumdavlat byudjetiga
 - b) maxalliy byudjetga
 - c) umumdavlat va mahalliy byudjetlarga
 - d) to'g'ri javob yo'q
11. Qaysi bir soliq umumdavlat byudjeti tarkibiga kiritilsa ham mahalliy byudjetga utkazdiriladi?
 - a) davlat boji
 - b) erga solinadigan soliq, mulka solinadigan soliq
 - c) QQS
 - d) aksiz solig'i
12. Qaysi bir soliq xili umumdavlat byudjeti tarkibiga kiritilib mahalliy byudjetga undiriladi?
 - a) aksiz soligi
 - b) QQS
 - c) er osti boyliklaridan foydalanganlik solig'i
 - d) davlat boji
13. Qaysi bir soliq mahalliy soliqlar tarkibiga kiradi?
 - a) QQS
 - b) aksiz solig'i
 - c) davlat boji
 - d) reklamaga solinadigan soliq
14. Qaysi bir soliq mahalliy soliqlar tarkibiga kiradi?
 - a) jismoniy shaxslar mulkiga solinadigan soliq
 - b) QQS
 - c) davlat boji
 - d) bojxona boji
15. Byudjetlarni shakllantirish kandy valyutada olib boriladi?
 - a) AQSH dollarida
 - b) AQSH dollarida va funt sterlingida
 - c) mahalliy valyutada
 - d) AQSH dollarida va yevroda

1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	11.	12.	13.	14.	15.
b	d	d	b	d	b	a	c	d	a	b	c	d	a	c

RAQAMLARDA AKS ETGAN SO'ZLAR

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
H	Q	Ch	D	G	U	E	S	K	F	X	N	Z	Sh	M
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
T	Y	O'	J	P	Ng	L	O	R	A	G'	I	B	V	-

10100		
11000		
111		
1101		
110		
1111		
10100		
1000		
11011		
10001		
11001		

Quyida berilgan ikkilik sanoq sistemasida ifodalangan sonlarni o'nlik sanoq sistemasiga aylantiring* va olingan sonlarni yuqorida berilgan jadvaldan foydalanib harflarga o'giring, hamda bo'sh katakchalarga joylashtiring.

Natijada, raqamlarda yashiringan va quyida keltirilgan jumlada tashlab ketilgan so'zni hosil qilasiz.

«Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligisi prinsiplariga asoslanadi».

*ikkilik sanoq sistemasida ifodalangan sonlarni o'nlik sanoq sistemasiga aylantirishga misol: 0=0; 1=1; 2=10; 3=11; 4=100; 5=101; ...; 30=11110.

KROSSWORD JAVOBI :

10100	20	P
11000	24	R
111	7	E
1101	13	Z
110	6	U
1111	15	M
10100	20	P
1000	8	S
11011	27	I
10001	17	Y
11001	25	A

1	1	11	1011	21	10101
2	10	12	1100	22	10110
3	11	13	1101	23	10111
4	100	14	1110	24	11000
5	101	15	1111	25	11001
6	110	16	10000	26	11010
7	111	17	10001	27	11011
8	1000	18	10010	28	11100
9	1001	19	10011	29	11101
10	1010	20	10100	30	11110

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. Budget Kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi;
4. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi;
5. "Byudjeti tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 14.12.2000y;
6. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 913-son., 02.09.1993;
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan "O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni;
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan "O'zbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori;
9. "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 148-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahriri. 16.06.07.);
10. Hududiy davlat boshqaruvi va ijroiya organlarining mahalliy byudjetlar parametrlarini tasdiqlash to'g'risidagi Qarorlari;
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat budjetiga soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berishni tartibga solish to'g'risida"gi Farmoni, 1996 yil 26 iyun;
12. Boshqa qonuniy-huquqiy hujjatlar

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2011 y.;
2. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2011 y.;
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston, 2010.;
4. “Soliq va Bojxona xabarları” ro‘znomasi;
5. Vaxobov A., Srojiddinova Z. Gosudarsvenniy byudjet. – T.: 2005.;
6. Yo. Abdullayev, K. Yahyoyev. “Soliq”: 100 savol va javob. T.: “Mehnat”, 1997.y.;
7. Sh.K. Gataulin. “Soliqlar va soliqqa tortish”. 1996 y.;
8. V.S. Beganov, J.X. Abdullaev va boshqalar. “Moliya siyosati, soliqlar va soliq solish”. 1998 y.;
9. M. Yo‘ldoshev, Y. Tursunov. “Soliq huquqi” T.: “Moliya”. 2000 y.;
10. O.T. Yo‘ldoshev. Davlat budjetining daromadlar va harajatlar tarkibida jiddiy va ijobiy siljishlar yuz berdi. Soliq va vojxona xabarları. 1996 y.;
11. T.S. Malikov. Soliq va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: “Adliya”. 2002 y.;
12. Zaynalov J.R. Davlat byudjeti. – Samarqand: Samarqand kooperativ instituti, 2002.;
13. Juravleva L.V. Byudjetnaya politika kak metod gosudarstvennogo regulirovaniya. - M.: Delo LTD ,1998;
14. T.I. Juraev. Soliq siyosatini takomillashtirish – iqtisodiy taraqqiyot omili. // “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimi va sug‘urta faoliyatini takomillashtirish yo‘llari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2004 y., 9-b.
15. Internet saytlari:
 - www.budget.uz – Budjet tizimi sayti;
 - www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
 - www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Hukumati sayti
 - www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali
 - www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi
 - www.uzreport.com-O‘zbekiston Respublikasi axborot agentligi
 - www.undp.uz – Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyet dasturi
 - www.publicfinance.uz – O'zbekiston byudjet tizimi isloxoti portal
 - www.gnk.uz – Davlat Soliq qo‘mitasi sayti